

Samarkand shaxri

«29» «Yanvar» 2022 yil

MChJ "LAZIZ PHARM" keyingi o'rinlarda "Sotuvchi" deb yuritiladi. O'zining nizomi, asosida ish yurituvchi direktor Xaydarov S.Sh., nomidan bir tomondan va Samarqand viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi, keyingi o'rinlarda "Sotib oluvchi" deb yuritiladi, O'zining nizomi, asosida ish yurituvchi (raxbar, bosh vrach) Azizov M.K., nomidan ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

### 1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Sotuvchi o'ziga tegishli bo'lgan tovar(mahsulot)ni ushbu spesifikasiyaga asosan Sotib oluvchiga o'z vaqtida sifatli qilib yetkazib berish, Sotib oluvchi esa tovar(mahsulot)ni kabul qilish va ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda to'lash majburiyatini oladi.

№	Tovar (maxsulotlar) nomi	O'lchov birligi	Soni	Narxi	Baxosi	QQS stavkasi	QQS stavkasi bilan summa
1	ALT	nabor	2	358 000,00	716 000,00	QQS siz	716 000,00
2	AST	nabor	2	352 000,00	704 000,00	QQS siz	704 000,00
3	SRB	nabor	3	365 000,00	1 095 000,00	QQS siz	1 095 000,00
4	RF	nabor	3	358 000,00	1 074 000,00	QQS siz	1 074 000,00
5	Holisterin	nabor	1	365 000,00	365 000,00	QQS siz	365 000,00
6	Hlamediya G	nabor	1	875 000,00	875 000,00	QQS siz	875 000,00
<b>Jami:</b>			<b>12</b>		<b>4 829 000,00</b>		<b>4 829 000,00</b>

1.2 Shartnomaning umumiy summasi **4 829 000** (To'rt million sakkiz yuz yigirma to'qqiz ming) sum ni tashkil qiladi.

### 2. YeTKAZIB BERISH VA HISOB-KITOBBLAR SHARTLARI

2.1. "Buyurtmachi" mazkur shartnomani g'aznachilik organiida ro'yxatga olingan kundan boshlab 15 bank ish kuni ichida qonunchilikka muvofiq, shartnoma umumiy summasidan 30% miqdorida (shartnoma summasidan 30% miqdorida) oldindan to'lash majburiyatini oladi, qolgan 30% ni tovarni olgandan so'ng 30 bank ish kuni ichida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, hisob-faktura va v.b. asosida to'laydi.

2.2. "Yetkazib beruvchi" avans mablag'lari Yetkazib beruvchining tegishli hisobvarag'iga kelib tushgan vaqtdan boshlab     bank ish kuni ichida tovarni yetkazib berish majburiyatini oladi.

2.3. "Yetkazib beruvchi" amaldagi GOST ga muvofiq tovarni yetkazib berishi shart.

2.4. "Buyurtmachi" tovarlarni qabul qilishda "Yetkazib beruvchi" ishtirokida olinayotgan tovarlarning to'liqligini va sifatini shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan tovarlarga muvofiqligini tekshirishi shart.

2.5. Agar mazkur shartnoma bilan boshqa hollar ko'zda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni tashish va tushirish bo'yicha barcha xarajatlar Yetkazib beruvchi xisobidan amalga oshiriladi.

2.6. Buyurtmachining roziligiga ko'ra tovar muddatidan oldin yetkazib berilishi mumkin.

2.7. Yetkazib berilgan tovar bevosita Buyurtmachining mas'ul xodimlari tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi va unda yetkazib berilgan tovarlarning miqdori, uning sifati ko'rsatiladi.

2.8. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan tovarlarni yetkazib berish, mazkur shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

### 3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Buyurtmachining huquqlari: Yetkazib beruvchidan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan davlat standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

Buyurtmachi hisobidan tovarlar tashib keltirilganda, Yetkazib beruvchidan transport xarajatlarini qoplab berishni talab qilish, agar mazkur shartnomaning shartlaridja boshqa hollar belgilanmagan bo'lsa;

Yetkazib beruvchidan mazkur shartnomaga muvofiq, tegishli sifat, assortiment bo'yicha tovarlarni yetkazib berishni talab qilish;

Sifatsiz tovar yetkazib berilganda o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagilardan birini talab qilish:

- tegishli sifatdagi shunga o'xshash tovar bilan almashtirib berish;
- kamchiliklarni beg'araz bartaraf etish;

- Yetkazib beruvchidan mazkur shartnoma shartlarini bajarmaganligi yoki tegishli darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplab berishni talab qilish.

3.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

- mazkur shartnomaga muvofiq yetkazib berilgan tovarlarni qabul qilish;

- tovarlarning qiymatini mazkur shartnomada belgilangan narxda va muddatda to'lash.

3.3. Yetkazib beruvchi quyidagi xuquqlarga ega:

- "Buyurtmachidan" oldindan to'lov va yetkazib berilgan tovarlar uchun yakuniy hisob-kitoblarni

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibda va hajmlarda amalga oshirishni talab qilish;

- Buyurtmachidan shartnomaga muvofiq, yetkazib berilgan tovarlarni asossiz ravishda qabul qilmaslik natijasida yetkazilgan zararlarni qoplab berishni talab qilish.

### 3.4. Yetkazib beruvchining majburiyatlari:

- Buyurtmachiga tovarlarni mazkur shartnomaga muvofiq belgilangan muddatda, miqdorda va sifatda yetkazib berish;

- agar tovarlarni yetkazib berish jarayonida Yetkazib beruvchi shartnoma shartlari va me'yorlardan yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidan chetga chiqishga yo'l qo'ygan hollarda Buyurtmachining talabi bo'yicha \_\_\_ - kun muddat ichida barcha aniqlangan kamchiliklarni beg'araz bartaraf etish.

3.5. Mazkur shartnoma belgilangan tartibda mazkur shartnoma shartlari va talablari va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq ijro etilishi shart.

3.6. Tomonlar o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlarning ijrosini ta'minlagan taqdirda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

## 4. TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI

4.1. Tovarlar tanlab olmaslik, shuningdek yetkazib beruvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrd) ularni yetkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun sotib oluvchi yetkazib beruvchiga tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa — 10 foiz miqdorida jarima to'laydi.

Tovarlar tanlab olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, yetkazib beruvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu tovarlar mavjudligining kafolatlarini taqdim etgan holda, tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymati to'lanishini talab qilishga haqlidir.

4.2. To'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun buyurtmachi mahsulot yetkazib beruvchiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Yetkazib berilgan tovarlar haqini o'z vaqtida to'lamanlik uchun buyurtmachi yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi

### 4.3. Yetkazib beruvchi:

- miqdor, sifat, texnik parametrlar, shuningdek taklif etilayotgan tovarlarni yetkazib berish muddatlari va joyi bo'yicha yetkazib beruvchi shartnoma shartlarining buyurtmachi nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligi;

- shartnoma shartlarining boshqa buzilishlari;

- tuzilgan shartnoma shartlarining bajarilmaganligi uchun javob beradi.

4.4. Agar yetkazib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalar (etalonlar) qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi (buyurtmachi) tovarlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, yetkazib beruvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar yetkazib berganlik uchun jarima yetkazib beruvchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.5. Tovarlar yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, tovar yetkazib beruvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

4.6. Marka belgisi qo'yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarni, shuningdek idishsiz yoki o'ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o'ralmagan tovarlarni yetkazib berganlik uchun yetkazib beruvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi. Tovarlar qabul qilingandan keyin yana jo'natilishi yoki saqlanishi kerak bo'lgan hollarda sotib oluvchi (buyurtmachi) jarima undirishdan tashqari, o'z kuchi bilan, lekin yetkazib beruvchi hisobidan tovarlarni o'rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shahardagi yetkazib beruvchidan tovarlarni o'rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

## 5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1. Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

5.2. Tomonlar kelishmovchilik va bahslarni hal etish uchun bevosita iktisodiy sudiga murojaat qilishga haqlidir.

5.3. Tomonlar iktisodiy sudiga murojaat qilgan taqdirda, sud ishi da'vogar joylashgan manzildagi iktisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

## 6. FORS-MAJOR

6.1. Fors-major natijasida majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari kelib chiqsa va bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 15

berganlik uchun yetkazib beruvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi. Tovarlar qabul qilingandan keyin yana jo'natilishi yoki saqlanishi kerak bo'lgan hollarda sotib oluvchi (buyurtmachi) jarima undirishdan tashqari, o'z kuchi bilan, lekin yetkazib beruvchi hisobidan tovarlarni o'rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shahardagi yetkazib beruvchidan tovarlarni o'rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

## 5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1. Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

5.2. Tomonlar kelishmovchilik va bahslarni hal etish uchun bevosita iktisodiy sudiga murojaat qilishga haqlidir.

5.3. Tomonlar iktisodiy sudiga murojaat qilgan taqdirda, sud ishi da'vogar joylashgan manzildagi iktisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

## 6. FORS-MAJOR

6.1. Fors-major natijasida majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari kelib chiqsa va bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 15 fevralidagi 63-sonli "Yengib bo'lmamas kuch (fors-major) holatlarining mavjudligini tasdiqlash mexanizmini kiritish to'g'risida"gi qarorida ko'zda tutilgan shartlarda tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarilishidan ozod etiladi.

## 7. BOSHA ShARTLAR

7.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

## 8. ShARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI




8.1. Mazkur shartnoma g'aznachilik bo'linmalarida majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 y. "31" dekabrgacha amal qiladi.

8.2. Shartnomaning amal qilishi bir tomonning tashabbusiga ko'ra oy (bir) davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab, barcha o'zaro hisob-kitoblar tugaganligi muddatidan avval to'xtatilishi mumkin.

Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlagan hollarda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

8.3. Shartnomaning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

## 9. YuRIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

SOTUVCHI	SOTIB OLUVCHI
Tashkilot nomi : MChJ "LAZIZ PHARM" Manzil: Samarqand shahri, Turkiston ko'chasi 169 uy Telefon: 97-926-36-63 STIR kodi: 305891202 OKED: 46460 X/R: 20208000800965951001 Bank nomi: AFD "UZSANOATKURILISHBANK" Samarqand filiali MFO: 00317 Raxbar (direktor):  Xaydarov S.Sh. M.O. (imzo)	Tashkilot nomi: Samarqand viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi Manzil: Samarqand sh/ Giyosiddin Jamshid ko'chasi 21-a uy STIR kodi: 201008045 OKED: 86100 x/r: <u>100021860184017043101054002</u> G'aznachilik bo'linmasi nomi: Yagona G'aznachilik xisob varakalari (YaGX) G'h: 23402000300100001010 Bank nomi: Markaziy bank Toshkent sh. bosh boshkarmasi XKKM MFO: 00014 G'aznachilik bo'linmasi INN raqami: 201122919 Raxbar (direktor):  Azizov M.K. M.O. (imzo) Xukukshunos: 

Ushbu shartnoma loyixasi Uz.R. «Xujalik yurituvchi sub'ektlari faoliyatining shartnomaviy-xukukiy bazasi to'g'risida»gi konuning 10,24-34 moddalari va Uz.R. «Fukarolk kodeksi»ning 386-424 moddalari talablariga javob beradi.

  
Xukukshunos: 